

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Mo'ydinov D. A.

«O'zbekiston tarixi» kafedrası tayanch doktoranti

Farg'ona davlat universiteti

doniyormuydinov7@gmail.com

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri daryo suv yo'li va daryolardagi kechuvlar tarixshunosligi haqida ayrim fikr mulohazalar bildirilgan. Temuriylar davri daryo kechuvlari va ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ta'siri tarixshunoslik tahlili asosida tahlil qilingan va yangi ilmiy xulosalar keltirilgan. Bugungi kunga daryo Temuriylar davri daryo kechuvlarining tarixini o'rgangan olimlar faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O.Bo'riyev, E.V Rtveladze, Amudaryo, Sirdaryo, kechuv, guzar, irrigatsiya, o'rta asrlar, Ohangaron, Zarafshon.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida barcha fanlar qatori tarix fanlari ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Tarix faning barcha qirralari asta sekin olimlar tomonidan o'rganib borilmoqda. Aytish joizki bugungi davrga qadar juda ko'plab tarixiy voqealar qayta yaratildi va jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Aynan yangi O'zbekistonda ham tarix ilmi rivoji juda jadallik bilan rivojlanmoqda. Sohaga juda ko'plab yangiliklar, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda va eng asosiysi tarixga qiziquvchi bilimli yoshlar safi yanada kengayib bormoqda. Bu esa tariximizni chuqur o'rganishga xizmat qilishi tabiiy holdir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

O'rta asrlar tarixini o'rganishda temuriylar davri bo'yicha yaratilgan asarlar O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davri manbalarining tarjima qilinishi natijasida Amir Temur va temuriylar davrining tadqiq etilmagan jihatlarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Amir Temur va temuriylar davrida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Fasih Havofiy, Mu'iniddin Isfizoriy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar tomonidan nodir asarlar yaratildi. Temuriylar davri manbalari bizga o'sha davrda sodir bo'lgan voqea-hodisalarnigina emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, savdo-hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va irrigatsiya tizimi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Ushbu masala bo'yicha bir qator bahsli holatlar uchraydi. Undan tashqari, daryo suv yo'li tizimi ahamiyati va unga bag'ishlangan ilmiy ishlarning kamligi, ikkinchi tomondan tanlangan mavzu umumiy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan ilmiy nashrlar ko'lami ko'pligi bilan izohlanadi. Mazkur davrda daryo suv yo'li

transport-kommunikatsiya vazifasini bajargan. Daryo suvlarining mavjudligi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirgan.

Daryo kechuvlari ham nisbatan kam o'rganilgan masalalardan sanaladi.

Kechik, kechuv, o'tkil, guzar - daryo, yoki soyning kechib o'tish mumkin bo'lgan sayoz qismi hisoblanadi. Kechuv harbiy sohada - qo'shinlarning suv to'siqlaridan (daryo, ko'l, kanal, bo'g'oz va qo'ltiqdan) o'tish usul va yo'llari. Kechuv to'siqlar va qo'llaniladigan o'tish vositalarining xarakteriga qarab, quyidagilarga bo'linadi: 1) desant usuli b-n K. (asosan, ilg'or bo'linmalar hamda ulardagi qurolyarog' va jangovar texnikaning suzuvchi avtomobillar, bronetransportyorlar, motorli qayiqlar va b. vositalar yordamida kechib o'tishi); 2) parom usulida kechuv (tank, artilleriya, avtomobil va b. og'ir harbiy texnikaning sol va suzuvchi moslama yordamida kechib utishi); 3) ko'priklar vositasida suv tusiklaridan o'tish [1]. Manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kechuvlar davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rus olimlari tomonidan tadqiqot mavzusiga oid bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ularda Markaziy Osiyoning yirik daryolari –Amudaryo va Sirdaryo hamda boshqa yirik daryolar orqali o'tgan suv yo'llari tizimini tarixiy – geografik ahamiyati tadqiq etilgan. Ushbu suv yo'llarini o'rganish strtegik jihatdan muhim ahamiyatga ega edi.

Mustaqillik yillarida mazkur davr tarixshunosligiga doir ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmogda. Ularda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot yoritilgan. Masalan, A.Sharipov, Y.Karimov, A.Qobulov, Sh.Allamuratov kabi bir nechta olimlarni sanab o'tish mumkin. Biroq, daryo kechuvlari borasida ilmiy izlanishlar nisbatan kam uchraydi yoki borlarida ham chalkashliklar mavjud.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo kommunikatsiya tizimini o'rganishda qator yutuqlarga erishildi. Bu davrda mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan suv yo'llari, daryo kechuvlari va ular bo'yida joylashgan qalalar tarixi bilan bog'liq masalalarni yoritishga xizmat qilgan bir qancha ilmiy asarlar nashr etilgan. Ular orasida arxeolog olim E.V.Rtveladzening asarlarini alohida ta'kidlash lozim. Olim Amudaryoning yuqori va o'rta oqimi havzasi qadimgi madaniyatlar tarixi, umuman Oks sivilizatsiyasi bilan jihatlarni tadqiq etgan.

O'.Mavlonovning tadqiqotida Markaziy Osiyo suv yo'llari tizimi va ularning ahamiyati o'rganilgan va tahlil qilingan. Olimning monografik ishida daryo kechuvlari va ularning harbiy-strategik ahamiyati hamda daryolarning o'zanlari, o'zgarishlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Omonulla Bo'riyev temuriylar davrining tarixiy geografiyasini tadqiq qilgan. Olimning izlanishlari tarixiy geografiya yo'nalishida bo'lishiga qaramasdan, temuriylar saltanatidagi sug'orish tizimiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Uning "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo" [2] asari va "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi" [3]monografiyasida Movarounnahr va Xurosonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, toponimikasi, tabiati, xo'jaligi, xalqaro aloqalari haqida so'z boradi. Eng asosiysi mazkur asarlarda Movarounnahrda daryo kechuvlari haqida ham so'z boradi.

Yana bir ilmiy asar bu Y.A.Karimovning “Markaziy Osiyo kommunikatsiya tizimida suv yo’llarining tutgan o’rni” [4] asaridir. Bu asar ham o’rta asrlar daryo kechuvlari haqida juda ko’p ma’lumot eradi. Mazkur asarda 20 ga yaqin daryo kechuvlari ularning joylashuvi, iqtisodiy- ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Bu asarda kechuvlarning paydo bo’lishiga doir ayrim ma’lumotlarni ham uchratish mumkin.

Amudaryo va Sirdaryo suv yo’li ularning ayrim kechuvlari, shuningdek mintaqadagi boshqa yirik daryolardan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Ohangaron va Chirchiq daryolari tarixi bilan bog’liq ma’lumotlar arxeolog olim E.Masson asarlarida ham uchraydi.

Qobulov E. A va Allamuratov Sh. Alarning ilmiy maqolalarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasining Amudaryo suv yo’li va kechuvlari orqali savdo munosabatlariga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ularning maqolasida XIX asr ikkinchi yarmida rus olimlari tomonidan o’rganilgan 11 ta kechuv haqida ma’lumot olish mumkin.

Shuningdek temuriylar davridagi kechuvlar haqida ma’lumot bergan olimlardan biri A.Sharipovdir. U o’zining bir nechta ilmiy maqolalarida jumladan “Amudaryo havzasidagi kechuv-guzarlar” maqolasida Amudaryo havzasidagi daryo kechuvlari haqida juda muhim ma’lumotlarni berib o’tgan. Mazkur maqolada 20 ga yaqin kechuv – guzar nomlari tilga olingan va ular haqida ma’lumotlar berib o’tilgan. Bu maqola muallif “Boburnoma” asaridagi ma’lumotlarga asoslanganligini ko’rish mumkin.

Yana bir tadqiqotchi S.Xakimova o’zining “O‘zbekiston hududida gidrografik tadqiqotlar” [5] monografiyasida ham Amudaryo va Sirdaryo havzasida joylashgan bir qator kechuvlar haqida ma’lumot berib o’tgan. Bu monografiya davri XIX – XX asr boshlarini qamrab olishiga qaramay, mazkur davr daryo kechuvlarini temuriylar davri kechuvlari bilan o’zaro qiyosiy tomondan iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy tomonlama tahlil etishga yordam beradi.

Xorij tadqiqotlarida ham daryo kechuvlari tarixshunosligiga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, sayyoh X.Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi [6] asarida Amudaryo kechuv joy nomlarini uchratish mumkin. Ushbu ma’lumotlar orqali o’sha davr daryo kechuvlari manzarasi, holatini tasavvur qilish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish kerakki, daryo kechuvlari strategik to’siq, qo’shin harakatini sekinlashtiruvchi omil hamda dushmanga qarshi kurashning asosi sifatida qaralgan. Tabiiy sayoz kechuvlar otliq qo’shin va tuyalar harakatlanishiga yordam bergan. Amir Temur va Temuriylar davrida qo’shinlar kechuvlardan tezlik bilan o’tganligi inobatga olinsa, ularning daryolar bilan bog’liq bilimlari mavjudligini ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN MANABA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. ТОШКЕНТ. 2005.
2. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 186 б.
3. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2017. – 350 б.
4. Каримов Я. Марказий Осиё коммуникация тизимида сув йўлларининг туганган ўрни (қадимги давр ва ўрта асрлар) – Бухоро: Дурдона, 2021. – 176 б.
5. Hakimova S.. O‘zbekiston hududida gidrografik tadqiqotlar tarixi. – Farg‘ona, 2023. – 144 b.
6. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1990.

Муйдинов Д. А.

Базовый докторант кафедры «История Узбекистана»

Ферганский государственный университет

doniyormuydinov7@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ПО ИСТОРИОГРАФИИ РЕЧНЫХ ПЕРЕПРАВ В ПЕРИОД АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

АННОТАЦИЯ

В статье представлены некоторые соображения об историографии речных водных путей и речных переправ в период Амира Темура и Темуридов. На основе исторического анализа анализируются речные переправы периода Темуридов и их влияние на политическую и социально-экономическую жизнь, а также представлены новые научные выводы. Приводятся краткие сведения о деятельности ученых, изучавших историю речных переправ периода Темуридов до настоящего времени.

Ключевые слова: О. Буриев, Э.В. Ртвеладзе, Амударья, Сырдарья, переправа, гузар, ирригация, средневековье, Ахангарон, Зарафшан.

Muydinov D. A.

Basic doctoral student at the department of «History of Uzbekistan»

Fergana State University

doniyormuydinov7@gmail.com

SOME CONSIDERATIONS ON THE HISTORIOGRAPHY OF RIVER CROSSINGS IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

ABSTRACT

This article presents some considerations on the historiography of river waterways and river crossings in the period of Amir Temur and the Temurids. The river crossings of the Temurid period and their impact on political, socio-economic

life are analyzed on the basis of historical analysis and new scientific conclusions are presented. Brief information is provided on the activities of scientists who have studied the history of river crossings of the Temurid period to date.

Keywords: O. Buriyev, E.V. Rtveladze, Amudarya, Syrdarya, crossing, guzar, irrigation, Middle Ages, Ahangaron, Zarafshan.